

**Mahmudov Dilshod Shahrizabz davlat
pedagogika instituti “tarix” kafedrası
o’qituvchisi tarix fanlari nomzodi .
phd. taqrizi ostida**

**OTAMURODOV DONIYORBEK
ODILBOY O’G’LI
SHAHRISABZ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI 2-
BOSQICH TALABASI
ILMIY RAHBAR
BEGALIYEV NURBEK
SHAHRISABZ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI “TARIX”
KAFEDRASI O’QITUVCHISI**

O’ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA AMIR SHOHMURODNING TUTGAN O’RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1785- yildan 1800-yillar oralig’ida Buxoro Amirligini boshqargan Amir Shohmurodning faoliyati haqida so’z boradi. Maqolada Amir Shohmurod tomidan amalga oshirilgan islohotlar va uning kamtarona faqir hayoti manbalar asosida yoritiladi. Maqoladagi ma’lumotlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Amir Shohmurod , Amiri mas’um , Ahmad Donish , Akbar Zamonov , Mirzo Olim mahdum Hoji madrasa , masjid , jizya .

Abstract: This article talks about the activities of Amir Shahmurad, who ruled the Emirate of Bukhara between 1785 and 1800. The article describes the reforms implemented by Amir Shahmurad and his modest poor life based on sources. The information in the article is analyzed based on historical sources .

Key words: Amir Shahmurad, Amiri Mas'um, Ahmad Donish, Akbar Zamonov, Mirza Olim Mahdum Haji madrasa, mosque, jizya.

Аннотация: В данной статье рассказывается о деятельности Амира Шахмурада, правившего Бухарским эмиратом в период с 1785 по 1800 годы. В статье на основе источников описаны реформы, осуществленные Амиром Шахмурадом, и его скромная бедная жизнь. Информация в статье анализируется на основе исторических источников.

Ключевые слова: Амир Шахмурад, Амири Масум, Ахмад Дониш, Акбар Замонов, медресе Мирзы Олима Махдума Хаджи, мечеть, джизья.

Kirish : Amir Shohmurod mang’itlar sulolasiga mansub amir hisoblanib 1785-yildan -1800 yillar oralig’ida Buxoro amirligida hukmdorlik qiladi. Amir Shohmurod xalq orasida juda mashhur edi. Xalq uni “Amiri mas’um” begunoh amir deya atar edi. Amir Shohmurod davrida mamlakatda bir qator jiddiy islohotlar amalga oshirildi . Mamlakat aholisi iqtisodiy faravonlikga erishdi

Materiallar va uslublar : Amir Shohmurod haqida bir necha tarixiy manbalarda ma’lumotlar kiritilib o’tiladi. Jumladan Ahmad Donish qalamiga mansub bo’lmish “Mang’itlar sulolasi tarixi” asarida batafsil ma’lumotlar keltirilib o’tiladi. Ushbu asarda Amir Shohmurodning taqvodor hayoti haqida so’z yuritiladi. Asarda Amir Shohmurod madh etilb, ko’klarga ko’tariladi uning hayotiga oid bir necha rivoyatlar keltirilib o’tiladi. Akbar Zamonov va

Alisher Egamberdiyev qalamiga mansub “Buxoro Amirligi tarixi” asarida Amir Shohmurod haqida mahalliy tarixchilar va ahamiyatli jihati g’arb tarixchi va sayyohlarining ham fikrlari bayon etiladi.

Natijalar va muhokamalar : Amir Shohmurod bolaligidanoq diniy ilmlarni o’rganishda ishtiyoqi baland edi. U qur’oni karim va hadisi shariflarni yod olgan va butun hayoti davomida islom shariati qonun- qoidalariga amal qilib hayot kechirgan edi. Madrasani bitirganidan so’ng darvishlik hayotini kechira boshladi. Shayxi Muhammad Safar Xorazmiyning yoniga borib uning xizmatiga kiradi. Otasi Buxoro hukmdori hisoblansa ham amir Shohmurod taxtga o’tirishidan avval shayxining tavsiyasi ila hammomlik so’ngra pichoqqa qin yasovchi hunar turi bilan shug’ullanib hayot kechirgan. Taxtga chiqishidan avval bozorga hamollik qilib yurgan payti Amir Shohmurod xalq ahvolidan xabardor bo’lar va siyosat maydonida bo’layotgan voqealarni zimdan kuzatar edi. Amir Shohmurod otasi Doniyolbiy otaliq (1758-1785) iltimosiga binoan juda ham og’ir vaziyatda tushib qolgan Buxoro taxtiga o’tiradi. Bu paytda Buxoroda vaziyat qaltis holda edi. Mamlakatni Davlat qo’shbegi va Sayyid Nizomiddin boshchiligidagi guruh egallab olgan edi. Ushbu hukmron guruh oddiy xalqni ayovsiz ravishda talar, hatto beva –bechora yetimlarning ham haqqini yeyishdan tap tortmas edilar. O’sha davr muarrirlarining qayd etishicha “Bevaning shamchirog’idan olov, vaqf omboridan bug’doy o’g’irlab”, ularni o’zlariniki deb hisoblaganlar. Hech kimda ularni javobgarlikka tortishga jasorat yetishmagan. Amirlar va hokimlar o’rtasida sharob ichish va shariat tomidan man etilgan o’yinlarni o’ynash keng rasm bo’lgan edi. Ahmad Donishning yozishicha, mamlakat aholisi va uning quyi qatlamlari aminona, vakilona kabi soliqlardan erkin “harakatlanish va nafas olish” imkoniyatiga ega emas edilar. Davlat qushbegi asli eronlik qullardan hisoblanib Muhammad Rahimbiy davrida ham shu lavozimda sihlagan edi. Sayyid Nizomiddin esa bosh qozikalon hisoblanib, adolatsiz hukmlar chiqarar, xalq orasida poraxo’rligi bilan mashhur edi. Amir Shohmurod hokimiyat tepasiga kelgan zahotiy oq Davlat qushbegini ham Sayyid Nizomiddinni ham yo’q qildi. Mamlakatda tartib va adolat tiklandi.

Amir Shohmurodning faqirona va kamtarona hayoti haqida mahalliy va xaqaro manbalarda turli xil ma’lumotlar uchraydi. Ahmad Donishning qayd etishicha “Amir Shohmurodning kundalik yeydigan taomlari quruq non va bir kosa suv bo’lgan”. Yana bir tarixchi Muhammad Hakimxon to’ra esa “Shohmurodning yeydigan taomi kishi yeydigan darajada bo’lmay, o’t o’lan sut qattiq va dukkakli o’simliklar bilan taomlanganligi” ni yozgan. U har o’n besh kunda bir marta jizya so’lig’idan yig’ilgan mablag’ hisobidan chorak g’o’sht olib, o’z ayoliga nafaqa qilar edi. Davlat amaldorlari va avomning to’ylariga bormas, hadyalar qabul qilmas edi. O’rta Osiyoga tashrif buyurgan vengriyalik sayyoh Armeniy Vamberi o’zining “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida ushbu hukmdor to’g’risida ba’zi salbiy fikrlar yozgan bo’lsa ham uning oliyanobligini tan olgan. Amiri mas’um deb atalgan bu ulug’ amir otasidan qolgan merosdan voz kechib, “Ommaga xayr tarqatuvchilarga beringizlar, meros moli bilan qo’limni kir qilishni xohlamayman, bu mollar kimlardan yig’ilgan bo’lsa, shularga qaytarilsin, iloji boricha mukofot tarzida berilsin” deydi va keyin otasining hukmronlik davridagi falokatlar uchun amir xalqdan uzur so’raydi.

Amir Shohmurod faoliyatiga oid yuqoridagi so’zlarning tasdig’i sifatida 1794-yil Buxoroga kelgan T. Burnashev o’z esdaliklarida shunday yozadi. “Uning saroyida zarracha dabdaba yo’q edi. Faqat ikkita xotini bo’lib kun kechirishlari uchun nihoyatda kam pul xarj qilinardi. Shu sababli ular tinimsiz turli qo’l mehnati bilan mashg’ul bo’lard0i va tirikchiligi shundan edi. U hech kimnikidan farq qilmaydigan oddiy kiyim kiyar edi. Uning odatiy ovqati non va suv edi. Xalq unga alohida ehtirom bilan munosabatda bo’lar edi. Uni Muhammad shariatiga haqiqiy amal qiluvchi va hatto avliyo darajasida ham bilishardi”

Mirza Abdulazim Somiy tomonidan yozilgan “Mang’it sultonlari tarixi yoki Buxoroning inqirozi” asarida aytilishicha “Amir Mas’um va g’oziy nomini olmish amir Shohmurod odil , haqq’o’y hukmdor edi. Uning amirligi davrida barcha bid’atlar bekor etilib sunnati rasul yana kuchga kirdi. U shariatni keng miqyosda yoyib , o’z holiga tashlab qo’yilgan vaqflarni qayta tikladi, masjid-u madrasalarni ta’mir etdi. Qadamjoi- avliyolarni obod qildi. Mamlakatda mosuvo bo’layozgan shon- shukuhni yana tiklab , davlatga fayz-u chiroy ato etdi” . deb ta’kidlanadi.

Mirzo Olim Mahmud hoji tomonidan yozilgan Tarixi Turkiston asarida esa “Shohmurodbiy ziyoda so’fiy , xudoga yaqinlashish yo’lini tutgan (doxulu suluk) va taraqqiyparvar , shariat targ’ibotchisi (shar’i sharif) taomi o’z kasbi halolidan edi” deb ta’rif beradi.

Ahmad Donish esa Amir Shohmurod haqida “Amirlik gilamini kambag’allik kiyimi bilan bezadi , jahon bog’idan dushmanlik va yomonlik kiyimini sug’urib tashladi va adolat nihollarini o’tkazdi” deb uning faoliyatiga juda yuksak baho beradi.

Muhammad Hakimxon to’ra Amir Shohmurodning shaxsiy hayoti va fazilatlari haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o’tadi.

“Alqissa Shohmurod valna’mi (arabcha, valene’mat “muruvvat ko’rsatuvchi”) Buxoroga yetgach, bir necha kun yo’l hordig’ini yozib dam olib, davlat yumushlari va xalqning arz-u dodini so’rash ishlari bilan mashg’ul bo’ldi . Aytishlaricha, bayt- ul mol ya’ni davlat xazinasidan o’zining shaxsiy ehtiyojlari uchun bir fulus ham xarj qilmas edi. Aytibdilarki, bir gal Samarqanga kelganida bir necha kun viloyatda qolib ketdi, sarflaydigan xarajat puli tugabdi va bisotida bitta po’stinidan bo’lak biron narsasi qolmabdi. Noiloj, o’sha po’stinni sotish uchun bozorga berib yuboribdi. Po’stinning xaridori topilmabdi. Nihoyat, deyarli tekin bahoda aniqrog’i, yarim dirhamga sotib qaytishga majbur bo’lishibdi. Sotib olgan xaridor kambag’al bir mullo kishi bo’lib, ertasi kuni pulni qaytarib olib kelib, “Po’stinning aybi bor ekan , savdoni bekor qilaman , olmayman” debdi. Shohmurodbiy val’namini “Nima aybi bor ekan” deb so’rabdi . Haligi odam “Butun dunyoning biti shu po’stin ichiga yig’ilgan ekan . Kechasi tanimda bir misqol ham et qolmasligiga sal qoldi ” debdi . Mullo bu po’stinning Shohmurodbiybeyga tegishli ekanidan xabari yo’q ekan. Val’namini rosa qotib kulibdi va nihoyat , ikkalasi ham qozi huzurida cho’kka o’tirib qozi hukmini so’rashibdi. Qozi yarim tanga arzon tushirib , po’stinni mulloga sotish bo’yicha qaror chiqarmoqchi bo’libdi. Ammo mullo bunga ko’nmabdi va “Bu po’stindan bezor bo’lganman , bir fulusga ham olmayman , pulimni qaytaring” deya oyoq tirab olibdi. Val’namini esa olishini so’raveribdi. Chunki po’stindan qo’lga kiritgan ikki tangani sihatlab bo’lgan , yonida mulloga qaytarib berish uchun boshqa puli yo’q ekan . Xulllas, ancha tortishuvlardan so’ng mullo rozi bo’libdi va val’namini mojarodan qutulibdi. Aytishlaricha, Eron yurishidan qaytayotgan mahal bisotida biror tanga pul qolmagan bo’lib , Buxoroga yaqin yerda qorni ochiqibdi va doimgidek, so’fiylar ravishi bo’yicha , haloldan yuqma yeyishga odatlangan val’namini oyog’idagi juft kavushni yechib ,baqqolga beribdi va evaziga biror yegulik olib tanovvul qilibdi. Buxoroga esa oyog’ida kavushsiz krib boribdi.

Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida keltirilishicha , Shohmurod yoshligidan bir necha yil Mir Arab madrasasissa tahsil olgan. U boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham yaxshi o’rgangan va so’fiyona turmush tarzi uning hayoti mazmuniga aylangan . U Buxoro madrasasida “Hidoya” Bazyoviyning “Kitob usul ad-din” asaridan hamda Shotibiyning asarlari va unga yozilgan sharhlardan dars bergan . Shohmurodning o’g’li Miriyning yozishicha , Shohmurod “Shotibiya” va uning sharhlarini yoddan bilgan . Shuningdek u qiroat , hadis, va fiqh bilimdoni bo’lgan va umrini talabalarga dars berishga

sarflab, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobiga nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan. Amir Shohmurod islom shariatiga oid "Fatovoi ahli Buxoro" nomli kitob tartib qilgan. Ammo bu fatvolar to'plamini to'liq kitob holiga keltirishga ulgurmagan. Otasining vafotidan so'ng o'g'li Amir Haydar mazkur kitobni oxiriga yetkazib qo'ygan.

Amir Shohmurod tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy va harbiy islohotlar o'z natijasini berdi. Masjid, madrasa, xonaqohlar faoliyati bir maromga keldi. Barcha davlat amaldorlari Amir Shohmurod tomonidan qattiq nazoratga olingan edi. Yuqori mansablarga diyonatli insonlar qo'yilar edi. Amir Shohmurodning 15 –yillik qisqa hukmronlik davrida Buxoro Amirligi har jihatdan o'z davrining cho'qqisiga erishdi. Amir Shohmurod vafotidan so'ng ham u Buxoro xalqi tomonidan yaxshi nom bilan eslanar edi. Barcha Amirlar unga o'xshashni istar edi.

Xulosa : Amir Shohmurod 1800 –yilda 63 –yoshida vafot etdi. Undan keyin Amirlik taxtini o'gli Amir Haydar (1800-1826) egalladi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, Amir Shohmurod o'z hukmronligi davrida avlodlarga salobatli, jimjimador imoratlar qoldirmadi ammo u haqiqiy vijdonli, imon- e'tiqodli shaxs obrazini o'z avlodlariga gavdalanitirib ketdi. Tarixchi olim Abdusattor Jumanazar ta'biri bilan aytganda "u xorijlik sayyohlar kelib tomosha qiladigan ulkan inshootlar qurdirmagan. Ammo u o'z davrida buyuk e'tiqod, mustahkam imon binolarini barpo qilgan edi". Amir Shohmurodni xalq hurmat qilib "Umari Soniy" ikkinchi Umar deb ham atashgan. Haqiqatdan manbalarni o'rganib tahli qilib chiqsak, Amir Shohmurodning hayoti 634-644 –yillarda xalifalik qilgan dunyoda eng odil hukmdor sifatida dong'i ketgan Xalifa Umar hazratlarining hayot yo'llariga juda ham o'xshashligini ko'rishimiz mumkim. Ikkala hukmdor ham adolat ila qo'l ostidagi mamlakatni boshqardi va tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan muhrlandi. Taklif sifatida aytadigan bo'lsak Amir Shohmurod hayotini o'rganish maqsadida Amir Shohmurod hayoti o'rgana ola oladigan arab va fors tillarini biladigan va manbalarni o'qiydigan mutaxassislarni ko'paytirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev – "Buxoro Amirligi tarixi". "Tamaddun" nashriyoti, Toshkent, 2022-yil.
2. Halim To'rayev – "Buxoro tarixi". "Durdona nashriyoti", Buxoro, 2020-yil.
3. Mirzo Olim Maxdum Hoji – "Tarixi Turkiston". "Yangi asr avlodi", Toshkent, 2009-yil.
4. Ahmad Donish – "Mang'itlar sulolasi tarixi".
5. Qahramon Rajabov – "Amir Shohmurod yoki – Amiri Mas'um" (maqola).
6. Xerman Vamberi – "Buxoro yoki Movarounnahr tarixi". "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", Toshkent, 1990-yil.
7. Mirza Abdulazim Somiy – "Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoroning inqirozi".